

TA'LIMDA SUN'IY INTELLEKT

Ishmamatova Adiba Kenja qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va

huquq ta'lim yo'nalishi talabasi

+99888 844 90 30

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun'iy intellektini ta'limda qo'llashning ijobiy va salbiy oqibatlari ko'rib chiqamiz. Sun'iy intellektning ijobiy tomonlariga keladigan bo'lsak, u inson xatosini va xavfni kamaytiradi, odamlar dan farqli ravishda tanaffuslar va yangilanishlarni talab qilmaydi, takroriy ishlarni bajaradi, tezroq qaror qabul qiladi, kundalik ilovalar, xavfli vaziyatlarda asqotadi, ta'limni shaxsiylashishiga olib keladi.

Kalit so'z: sun'iy intellekt, virtual tarmoq, texnologiya, kompyuter texnologiyalari, malakali kadr, CHatGPT, KUNDALIK KOM, ta'lim

Yoshlarning zamonaviy bilim olishi, yuksak manaviyatli bolib voyaga yetishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasidagi ishlar izchil olib borilmoqda. XXI asrga kelib ilm-fan shu darajada rivojlanib ketdiki, hayotimizni hech bir kunini fan yutuqlari va texnikalarsiz tasavvur etish imkonsiz bo'lib qoldi. Ayniqsa, axborotlashgan jamiyat va sun'iy intellekt kabi tushunchalar hayotimizning asosiy bo'lagiga aylanib ulgurdi. Janiyatimizda ko'plab uchratayotgan sun'iy intellekt tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, avvalo, intellekt tushunchasini anglab olishimiz zarur. Mamlakatimizda ta'limtarbiya sohasining barcha bo'g'inlari – maktabgacha ta'lim, maktab, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimini takomillashtirish, yangi muassasalar bunyod etish va mavjudlarini qayta ta'mirlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar yoshlar kamolotida o'z samarasini beradi.

Suniy intellekt – ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan virtual tarmoq bo'lib, u odatda inson aqlini talab qiladigan vazifalarni bajarishga qodir mashinalarni yaratishga qaratilgan.

Suniy intellekt bugungi kunning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Har qanday sohada suni'y intellektga duch kelishimiz mumkin. Har qanday biznes, davlat organi, ishlab chiqarish yoki savdo tuzilmasi, logistika, ta'lim, tibbiyot muassasasi va bir kishining faoliyatini avtomatlashtirish – bularning barchasi sun'iy intellektni qo'llash sohalaridir.

Suni'iy intellektidan foydanishning ham huquqiy tomonlama qonun-qoidalari mavjud bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.02.2021 y. dagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-

tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4996-son Qarori qabul qilinishi ushbu sohadagi ishlarni bir tizimga solish va tashkillashtirish imkonini berdi. "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasiga muvofiq hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ularni mamlakatimizda keng qo'llash, raqamli ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini va ularning yuqori sifatini ta'minlash, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida mamlakatimizda ta'lim - tarbiya sohasining barcha bo'g'inlari - maktabgacha ta'lim, maktab, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimini takomillashtirish, yangi muassasalar bunyod etish va mavjudlarini qayta ta'mirlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar yoshlar kamolotida o'z samarasini beradi. [1]

Sun'iy intellekt biz uchun yangi tushuncha emas. Meri Shellining ilmiy-fantastik durdona asari "Frankenshteyn" va klassik Frits Langning "Metropolis" filmi kabi fantastik asarlar ham insonga o'xshash faoliyatni amalga oshirishi mumkin bo'lgan mavjudotlarni yaratish istagini o'ziga tortgan. Haqiqiy hayotda sun'iy intellektning dastlabki ishlari 1950-yillarda boshlangan va asosiy e'tibor inson aqlini simulyatsiya qila oladigan algoritmlarni yaratishga qaratilgan. Dastlabki tadqiqotlar ramziy sun'iy intellektga qaratilgan bo'lib, u inson tafakkurini ekspert tizimlariga kodlash orqali qayta yaratishga harakat qilgan. Bu ramzlarni manipulyatsiya qilish uchun bir qator qoidalarga rioya qilishi mumkin bo'lgan kompyuter dasturlarini yaratishni o'z ichiga oldi, ba'zan esa real hayotda ishlash bilan bog'liq bo'lmagan haddan tashqari soddalashtirilgan tizimlarga olib keldi.

Sun'iy intellektning eng katta yutuqlaridan biri shundaki, u inson xatolarini kamaytiradi.

Odamlardan farqli o'laroq, kompyuter mashinasi to'g'ri dasturlashtirilgan bo'lsa, xatolarga yo'l qo'ymaydi, odamlar esa vaqti - vaqti bilan xato qiladilar. Shu sababli, sun'iy intellekt avval saqlangan ma'lumotlarni to'plash, xatolik ehtimolini kamaytirish va har qanday vazifaning aniqligini oshirish orqali ba'zi bir algoritmlar to'plamidan foydalanadi. Demak, sun'iy intellekt qiyin hisob-kitoblarni talab qiladigan va hech qanday xatosiz bajarilishi mumkin bo'lgan murakkab muammolarni hal qilishga yordam beradi. [2]

Sun'iy intellektda inson xavfsizligi har doim e'tiborga olinadigan asosiy narsadir. Qachonki, insonlar xavfli joyda xavfli qismini o'rganishimiz kerak bo'lsa, olimlar sun'iy intellektni qo'llab - quvvatlaydigan mashinalardan foydalanadilar. Sun'iy intellekt odamlar erisha olmaydigan har qanday joyga yetib borishi mumkin.

Ta'lim texnologiyalarida sun'iy intellekt roli haqida batafsilroq to'xtalib o'taylik. Sun'iy intellekt deb, odatda kompyuter texnologiyalari orqali, inson salohiyatini kengaytiradigan, o'rganish, axborot ustida harakatlar qilish, uni tushunish va tanib olish qobiliyatini oshirishga mo'ljallangan aqlli tizimlar sifatida tushuniladi .

O'rinda shuni aytib o'tish kerakki. Barcha sohalarda suni'iy intellektning qo'llanishi insonlarning o'g'irini yengil, uzog'ini yaqin qilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida HEMIS tizimining yaratilishi, maktablarda KUNDALIK.COM ilovasining yaratilishi ayrim muammolarni yengillashtirdi. Lekin, umuman olib qaraydigan bo'lsak, suni'y intellektning ta'lim sohasida qo'llanilishi talaba yoshlar o'rtasida izlanuvchanlik, kitobxonlik, kuchli xotira va bilimga ega bo'lish kabi xislatlarni kamaytirib yubormadikan? CHatGPT va shunga o'xshash ilova va saytlarda turli qil mustaqil ishlarni, maqola va ma'ruzalarni osonlik bilan tayyorlash inson aqliy faoliyatining sustlashishiga olib kelmoqda. Albatta biz zamonaviy texnologiyalar asrida yashayabmiz lekin undan umumli va o'z o'rnida foydalanish o'z qo'limizda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sun'iy intellektning afzalliklari va kamchiliklari. <https://www.javatpoint.com/advantages-and-disadvantages-of-artificial-intelligence>).
2. Sun'iy intellektning ijobiy va salbiy tomonlari: unda ishlashining 15 sababi. (<https://livetilesglobal.com/pros-cons-artificial-intelligence-classroom/>).
3. Baydullaev, A.S., Tayrov K.B, Narzullaev D.Z., Shadmanov K.K, Yomgirov O.T. The effectiveness of digital technologies use in higher education: a modern approach to training. Proceedings of SPIE - The International Society for Optical Engineering this link is disabled, 2023, 12637, 126370T. <https://www.scopus.com/authid/detail.uri?authorId=57217590658>
4. Sun'iy intellektning ijobiy va salbiy tomonlari: unda ishlashining 15 sababi. (<https://livetilesglobal.com/pros-cons-artificial-intelligence-classroom>
5. Rashidovna, H. M. (2022). New Uzbekistan in the World's View: Achievements for Active Foreign Policy and Socio-economic Cooperation. *International Journal on Integrated Education*, 5(6), 423-427.
6. HAKIMOVA, M. R. MAMLAKAT VA FRONT EHTIYOJLARIGA QARATILGAN QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA XOTIN-QIZLARNING FRONTORTI JASORATLARI.
7. Baymatov, A. K. (2022). TINCHLIK MADANIYATI BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING MUHIM OMILI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(11), 459-465.